

**ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ЖУРНАЛИ
6 ЖИЛД, 9 СОН**

**ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ
ИССЛЕДОВАНИЙ
ТОМ 6, НОМЕР 9**

**JOURNAL OF LAW
RESEARCH
VOLUME 6, ISSUE 9**



Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
д.ю.н., проф.
(Doctor of Law, Professor)
Абдурасулова Қумринисо Раимқуловна

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
д.ю.н., доцент
(Doctor of Law, Associate professor)
Файзиев Шохруд Фармонович

Ҳуқуқий тадқиқотлар журнали таҳририй маслаҳат кенгаши
редакционный совет журнала Правовых исследований
Editorial Board Journal of Law research

12.00.01 - Давлат ва ҳуқуқ назарияси ва тарихи. Ҳуқуқий таълимотлар тарихи / Теория права и государства, История правовых учений / Theory of law and state, History of legal doctrines

ю. ф. д., проф. Ҳалимбой Бобоев
ю. ф. д., проф. Ахмедшаева Мавлюда
ю. ф. д., проф. Муҳиддинова Фирюза
ю. ф. д., проф. Адилходжаева Сурайё
ю. ф. д., проф. Сатторов Абдуғаффор

Yosuke Shamoto (Japan)
д.ю.н., проф. Артур Гамбарян
(Республика Армения)

12.00.02 - Конституциявий ҳуқуқ. Маъмурий ҳуқуқ. Молия ва божхона ҳуқуқи / Конституционное право; административное право; финансовое право / Constitutional Law; administrative law; financial right

ю. ф. д. Гулчехра Маликова
ю. ф. д. Хусанов Озод
ю. ф. н. Хван Леонид Борисович
ю. ф. д. Силиманова Светлана

Sung Un Lee (South Korea)
д.ю.н., доц. Пешкова Христина Вячеславовна
(Российская Федерация)

12.00.03 - Фуқаролик ҳуқуқи. Тадбиркорлик ҳуқуқи. Оила ҳуқуқи. Халқаро хусусий ҳуқуқ / Гражданское право; предпринимательское право; семейное право; международное частное право / Civil law; Business law; family law; Private international law

юримдик фанлар доктори, профессор
Ўзбекистон Республикасида хизмат
кўрсатган юрист Окюлов Омонбой,
Рузиев Рустам, Рузиназаров Шухрат,
Шомухамедова Замира, Баратов
Миродил, Бобокул Тошев

Dr. Ahmad Issa Altweissi (Jordan)

12.00.04 - Фуқаролик процессуал ҳуқуқи. Хўжалик процессуал ҳуқуқи. Ҳакамлик жараёни ва медиация / Гражданское процессуальное право; хозяйственное процессуальное право, арбитражный процесс и медиация / Civil Procedure Law; Economic procedural law, arbitration process and mediation

юримдик фанлар доктори, профессор,
Ўзбекистон Республикасида хизмат
кўрсатган юрист Эсанова Замира
Нормуродовна, Мамасидиков Музаффар

Jason A. Cantone Federal court center (USA)

12.00.05 - Мехнат ҳуқуқи. Ижтимоий таъминот ҳуқуқи / Трудовое право; право социального обеспечения / The Labor law; Social security law

ю.ф.д., проф. Усманова Муборак Акмалхановна
ю.ф.н., доц. Гасанов Михаил Юриевич
ю.ф.н., доц. Сатторова Гулноза
ю.ф.н., доц. Муродова Гулнора

д.ю.н., проф. Денисов Глеб
(Российская Федерация)

12.00.06 - Табиий ресурслар ҳуқуқи. Аграр ҳуқуқ. Экологик ҳуқуқ / Природоресурсное право; аграрное право; экологическое право / Natural resource law; Agrarian law; Environmental law

Ю.ф.д., проф. Файзиев Шухрат Хасанович,
Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган
юрист ю.ф.н, доц. Скрипников Николай
Кузмич, ю.ф.д., проф. Усмонов Муҳаммади
Бахридинович, ю.ф.д., проф. Холмўминов
Жума, ю.ф.д., проф. Жўраев Юлдаш
Ачилович

Долгополов Кирилл Андреевич
(Российская Федерация)

12.00.07 - Суд ҳокимияти. Прокурор назорати. Ҳуқуқни муҳофаза қилиш фаолиятини ташкил этиш. Адвокатура / Судебная власть. Прокурорский надзор. Организация правоохранительной деятельности. Адвокатура / The judicial authority. Prosecutor supervision. Organization of law enforcement activities. Advocacy

Ю.ф.д., проф. Пўлатов Бахтиёр Халилович,
Ю.ф.д. Саломов Баҳром Саломович,
ю.ф.д., проф. Салаев Нодирбек Сапарбаевич
(Тошкент давлат юридик университети)

James V. Eaglin Федерал суд Маркази (АҚШ)
д.ю.н., проф. Кайрат Осмоналиев (Қирғизистон
Республикаси) к.ю.н., доц. Сергей Шошин
(Российская Федерация), д.ю.н., проф. Алексей
Кибальник (Российская Федерация), д.ю.н., проф.
Кудрявцев Владислав Леонидович (Российская
Федерация)

**12.00.08 - Жиноят ҳуқуқи. Криминология. Жиноят-ижроия ҳуқуқи /
Уголовное право и криминология; уголовно-исполнительное право /
Criminal law and criminology; Criminally-executive law**

Ю.ф.д., проф. Кабулов Рустам, Ўзбекистон
Республикасида хизмат кўрсатган юрист,
ю.ф.д., проф., Рустамбаев Мирзаюсуп
Ҳакимович, ю.ф.д., проф. Ражабова Мавжуда
Абдуллаевна, ю.ф.д., проф. Зуфаров Рустам
Ахмедович, ю.ф.д., проф. Тахиров Фарход,
ю.ф.д., проф. Исмоилов Исомиддин,

Matthew Light (Canada), проф. Юлдошев Рифат
Раҳмаджонович (Республика Таджикистан),
д.ю.н., проф. Елене Антонян Александровна
(Российская Федерация), д.ю.н., проф.
Джансараева Рима Ернатовна (Республика
Казахстан), Кирил (Российская Федерация)

**12.00.09 - Жиноят процесси. Криминалистика. тезкор-қидирув ҳуқуқ ва суд экспертизаси /
Уголовный процесс, криминалистика, оперативно-розыскное право и судебная экспертиза / Criminal
procedure, criminalistics, operative-search law and judicial examination**

Ю.ф.д., проф. Иноғомжонова Зумратхон
Фатхуллаевна, ю.ф.д., проф. Пўлатов Юрий
Сайфиевич, ю.ф.д. Мухиддинов Фахриддин,
ю.ф.д., проф. Тўлаганова Гулчехра Заҳитовна,
ю.ф.д. Миразов Даврон

Kevin Curtin (USA), Jurgen Maurer (Germany),
д.ю.н., проф. Стойко Николай Генадьевич
(Российская Федерация), Проф. Рыжаков
Александр Петрович (Российская Федерация),
д.ю.н., проф. Зайниддин Искандаров (Республика
Таджикистан), Проф. Сергей Пен (Республика
Казахстан), доц. Алексей Пурс (Республика
Беларусь)

12.00.10 - Халқаро ҳуқуқ / Международное право / International law

ю.ф.д., проф. Исмоилов Баҳодир,
ю.ф.д., проф. Маткаримов Гулчехра,
ю.ф.д., проф. Юлдашева Говхержан

Alexander Trunk (Germany)

Мусаҳҳих: Нурмуҳаммад Ҳамидов

Дазайн - саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT


1. Кудрявцев Игорь Владимирович ПОНЯТИЕ И СУЩНОСТЬ СТРАТЕГИЧЕСКОГО ПАРТНЕРСТВА МЕЖДУ ГОСУДАРСТВАМИ.....	5
2. Абдуллаева Мафтуна Мурот қизи КОНСТИТУЦИЯВИЙ СУД ТОМОНИДАН ҲУҚУҚ НОРМАЛАРИНИ ШАРҲЛАШНИНГ АЙРИМ НАЗАРИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ.....	16
3. Исломқулова Шохсанам Ваҳобжон қизи ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИДА МЕҲНАТ МУНОСАБАТЛАРИ. ФУҚАРОЛИК ВА МЕҲНАТ ШАРТНОМАЛАРИНИНГ ФАРҚЛАРИ.....	25
4. Хаджаева Саодат Анваровна ЭЛЕКТРОН МЕҲНАТ ШАРТНОМАСИНИНГ АҲАМИЯТИ.....	33
5. Шокиров Ойбек Азизжон угли ТРУДОВЫЕ СПОРЫ И ПОРЯДОК ИХ РАЗРЕШЕНИЯ: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ.....	41
6. Abdusamiyeva Dilrobo Abduvaxob qizi POSTPENITENSIAR RESOTSIALIZATSIYA MAZMUNI VA UNING IJTIMOIIY ZARURATI.....	50
7. Отегенова Луиза Жолдасбаевна ҚИЛМИШНИНГ ЖИНОЙЛИГИНИ ИСТИСНО ҚИЛУВЧИ ҲОЛАТЛАР ТУШУНЧАСИ ВА УМУМИЙ ТАВСИФИ.....	57
8. Базарова Дилдора Бахадировна ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА ШАХС ҲУҚУҚЛАРИ ПРОЦЕССУАЛ КАФОЛАТЛАРИНИНГ НАЗАРИЙ ВА ҚОНУНЧИЛИК АСОСЛАРИ.....	65
9. Джураева Захро Тулкуновна ЎЗБЕКИСТОННИНГ БМТ БОШ АССАМБЛЕЯСИНИНГ 76-ЧИ СЕССИЯДАГИ ТАШАББУСЛАРИ.....	73
10. Камиллов Ойбек Хамиджонович ГЛОБАЛЬНЫЕ И РЕГИОНАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ОБЛАСТИ МИГРАЦИИ, ДЕНЕЖНЫЕ ПЕРЕВОДЫ И ИХ ЗНАЧЕНИЯ В НАЦИОНАЛЬНОМ СЕГМЕНТЕ.....	80
11. Хамдамова Фируза Уразалиевна, Джураева Захро Тулкуновна ВЫПОЛНЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ ПО ИСКОРЕНЕНИЮ БЕДНОСТИ И НИЩЕТЫ.....	89
12. Nosirov Barxayot Murodjonovich ShNT – XALAQARO – HUKUMATLARARO MINTAQAVIY TASHKILOT SIFATIDA: MARKAZIY OSIYODA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDAGI ROLI.....	96

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ JOURNAL OF LAW RESEARCH

Nosirov Barxayot Murodjonovich,
“BN Construct and Repair”da direktor
E-mail: barkhayot3389@gmail.com

ShHT – XALAQARO – HUKUMATLARARO MINTAQAVIY TASHKILOT SIFATIDA: MARKAZIY OSIYODA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDAGI ROLI

For citation: Nosirov Barkhayot Murodjonovich. SCO AS AN INTERNATIONAL - INTERGOVERNMENTAL REGIONAL ORGANIZATION: ITS ROLE IN PROVIDING SECURITY IN CENTRAL ASIA. Journal of Law Research. 2021, 6 vol., issue 9, pp. 96-101

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2021-9-12>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta’minlashda Shanxay Hamkorlik Tashkilotining o’rni, uning tashkil etilishi, huquqiy asoslari, tarkibiy qismlari hamda tashkilotni tashkil etilishidan asosiy maqsad kabi jihatlariga to’htalib o’tilgan. Tashkilotning tarkibiy tuzilmasi Mintaqaviy Aksilterror Tuzilmasiga alohida to’htalinib, uni tuzishdan maqsad va vazifalar yoritilgan. Maqolada mintaqa xavfsizligini ta’minlashda Afg’onistondagi ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy holat muhim rol o’ynashi tahlil qilinib, u yerda ShHT hamkorligida doirasida barqarorlikka erishish boyicha aniq taklif berilgan.

Kalit so’zlar: ShHT, xavfsizlik, terrorizm, Mintaqaviy Aksilterror Tuzilma, Markaziy Osiyo, Afg’oniston, barqarorlik.

Носиров Бархает Муроджонович,
Директор в “BN Construct and Repair”
E-mail: barkhayot3389@gmail.com

ШОС КАК МЕЖДУНАРОДНАЯ – МЕЖПРАВИТЕЛЬСТВЕННАЯ РЕГИОНАЛЬНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ: ЕЕ РОЛЬ В ОБЕСПЕЧЕНИИ БЕЗОПАСНОСТИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

АННОТАЦИЯ

В этой статье автор рассказывает об истории, правовых основах и структуре ШОС, подчеркивает роль организации в обеспечении безопасности региона. Была выделена Региональная антитеррористическая структура ШОС и кратко рассмотрены основные функции и цели. Более того, социально-экономическая и политическая ситуация в Афганистане рассматривалась как важная часть региональной безопасности, и автор выдвигает свое предложения об обеспечении стабильности в Афганистане в рамках ШОС.

Ключевые слова: ШОС, безопасность, терроризм, Региональная Анти Террористическая Структура, Центральная Азия, Афганистан, стабильность.

Nosirov Barkhayot Murodjonovich,
Executive manager at “BN Construct and Repair”
E-mail: barkhayot3389@gmail.com

SCO AS AN INTERNATIONAL - INTERGOVERNMENTAL REGIONAL ORGANIZATION: ITS ROLE IN PROVIDING SECURITY IN CENTRAL ASIA

ANNOTATION

In this article, the author tells about the history, legal bases and structure of SCO and underlines the role of organization in ensuring security of the region. The Counter Terroristic Structure of SCO was highlighted and briefly examined the main functions and goals. Moreover, social - economic and political situation in Afghanistan was considered as an important part of regional security and the author puts forward his proposal on ensuring stability in Afghanistan within the framework of the SCO.

Keywords: SCO, security, terrorism, Regional Counter Terroristic Structure, Central Asia, Afghanistan, stability

Mintaqaviy xavfsizlikni tizimining samarali ishlashining muhim shakli sifatida xalqaro huquqiy normalar va xalqaro institutlar nomoyon bo'ladi. Ushbu tarkibiy qismlarning mavjud bo'lishi mintaqadagi davlatlararo munosabatlarda barqarorlikni ta'minlaydi. Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashning yuridik asosi esa o'z navbatida mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlovchi subyektlar faoliyatining yuridik asosi sifatida nomoyon bo'lishi bilan izohlanadi. Hududdagi xavfsizlikni ta'minlashning asosiy strategiyasi, ustivor yo'nalishlari, maqsad va vazifalari, shuningdek vositalari xalqaro huquqiy normada o'z asosini topadi.[1]

Mintaqaviy xavfsizlik tushunchasiga to'htalib o'tarkanmiz, avvalo BMT Nizomining VIII bobida mintaqaviy miqyosda xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlovchi xalqaro mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlovchi tashkilotlar tuzilishi mumkinligi belgilab berilgan.

Markaziy Osiyo davlatlari xalqaro munosabatlarning suveren subyekti sifatida mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning barcha xalqaro huquqiy vostialaridan foydalanishi mumkin. Ushbu tizimda mintaqaviy mexanizmlar, davlatlarning institutsional birlashmalari hududda xavfsizlikni ta'minlashning muhim va samarali vositasi sifatida ko'rilishi mumkin. O'zbekiston, davlatning barqaror, rovon rivojlanishini va milliy xavfsizlikni ta'minlovchi davlatlararo birlashmalarga asosiy e'tibor qaratadi.[2]

Bunday institutlarga ehtiyoj birinchi navbatda ichki tizimlashuv, ichki va xalqaro muammolarni xal qilishni aniq belgilangan vosita va mexanizmlar samarasi bilan izohlanadi.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti xalqaro tashkilot sifatida o'z tarkibida xavfsizlikni ta'minlovchi o'ziga xos mexanizmiga ega. Tashkilotning xavfsizlikni ta'minlovchi muhim institutsional qismi bu shubhasiz MATTdir.

Ikkinchidan, bu ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar sohalarda ko'p tomonlama samarali hamkorlikni tashkil etish borasida qo'yilayotgan va bajarilayotgan vazifalar, buning uchun zarur shartnomaviy-huquqiy asosni shakllantirish va har bir mamlakat uchun ahamiyatli bo'lgan yirik loyihalarni amalga oshirishdir.

Uchinchidan, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti davlatlarning teng huquqli birlashmasi bo'lib, uning faoliyati boshqa mamlakatlarning manfaatlariga qarshi qaratilmagan va qarama-qarshilik qiladigan blok xususiyatiga ega emasligi yaqqol namoyon bo'lmoqda".

Mintaqaviy aksilterror tuzilmasining tashkil etilishi 2001-yili 15-iyunda imzolangan "Terrorizm, separatizm, va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiyasi qabul qilinishi bilan boshlangan bo'lib, 2002 yili 23 mayda Ostona (Qozog'iston) da bo'lib o'tgan, ShHT a'zo davlatlari huquqni muhofaza qiluvchi va mahsus hizmat organlari rahbarlari yig'ilishida "ShHT a'zo davlatlari o'rtasida Mintaqaviy aksilterror tuzilmasini tashkil etish bo'yicha shartnoma loyihasini to'g'risidagi" qaror qabul qilindi. Bundan tashqari ushbu Shartnoma loyihasi ham qabul qilinib, ishtirokchi davlatlarga maksimal qisqa davr ichida tuzilmani tashkil etish bo'yicha kerakli hujjatlarni

qabul qilish tavsiya etildi. Shu yili 7 iyunda Sankt Peturburгда o'tkazilgan a'zo davlatlar rahbarlari yig'ilishida Mintaqaviy Aksilterror Tuzilmasi to'g'risida shartnoma qabul qilindi va uning asosiy vazifa va maqsadlari belgilandi. MATTning eng asosiy bosh organlaridan biri Ijro etuvchi qo'mita bo'lib, uning asosiy faoliyati yo'nalishi sifatida quyidagi 3 ustuvor yo'nalishlar belgilandi:

- 1) Koordinatsion tezkor yo'nalish (terrorizm, ekstremizm, separatizmga qarshi kurashda, mashg'ulotlar o'tkazishga mas'ul a'zo davlatlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish);
- 2) Xalqaro- huquqiy yo'nalish (xalqaro hujjatlarni tayyorlash, jumladan, BMT doirasida hamda Xavfsizlik Kengashda qabul qilingan hujjatlar bilan ishlash);
- 3) Ma'lumot tahlil yo'nalishi (MATT ma'lumotlar bankini tashkil qilish va to'ldirish, terrorizmga qarshi kurashni ta'minlash masalalari bo'yicha ma'lumotlar yig'ish va ularni tahlil qilish)

Ma'lumki, davlat chegaralarining ochiqligi va davlatlarning deyarli barcha sohalarda bir-birlari bilan o'zaro bog'liq ekanligi xavfsizlikni ta'minlashni birmuncha murakkablashtiradi.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti tashkil etilgan davrdan to hozirgi kungacha xavfsizlik sohasida quyidagi ijobiy natija va kelishuvlarga erishildi:

-Chegaraviy masalalar hal qilindi va bu bo'yicha 1996-yilda "chegaralarda harbiy sohada ishonchni mustahkamlash to'g'risida" shartnoma imzolandi(Shanxay deklaratsiyasi). Ushbu bitim beshta ishtirokchi davlatlarning chegara xizmatchilari o'rtasidagi ishonchni oshirdi, chegara zonalarda o'zaro nazoratni kuchaytirish, chegaralardagi vaziyat to'g'risida davlatlar bir-birlarini xabardor qilib turishlari imkonini yaratib berdi.

-ShHT tizimida xavfsizlik va rivojlanish sohasida o'zaro kuchlarni to'plash uchun quyidagilar tashkil etildi: huquq tartibot organlari rahbarlarining yig'ilishi, Chegara, Mudofaa, Tashqi ishlar va favqulodda vaziyatlar vazirlarining uchrashuvlari.

-2001-yilda terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurashish maqsadida Shanxay konvensiyasi imzolandi.

-Toshkentda ShHT ning mintaqaviy aksilterror tuzilmasining ijroiya komiteti tuzildi.

-Xavfsizlik va rivojlanish sohasida bir qator xalqaro tashkilotlar bo'lgan BMT taraqqiyot dasturi, BMT Xavfsizlik Kengashi, BMT terrorizmga qarshi kurashish qo'mitasi, YXHT, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Aksilterror markazlari bilan doimiy aloqalar o'rnatildi.

-Shanxay Hamkorlik Tashkiloti-Afg'oniston ishchi guruhi tuzilishi mintaqada xavfsizlik va tinchlikni ta'minlashdagi tarixiy qadamlardan biri bo'ldi.

Shunday qilib, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti mintaqadagi xavfsizlik jarayonlarini mustahkamlash yo'lida kompleks tarzda mexanizmlarni ishlab chiqdi. 2002 yil 7-iyun oyida Sankt-Peturburgdagi sammit chog'ida ShHT doirasida MATT ijroiya qo'mitasini yaratishga kelishib olishdi("Shanxay Hamkorlik Tashkiloti a'zo davlatlari o'rtasida Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi doirasida hamkorligi to'g'risidagi Kelishuv") va u o'z ishini 2004-yilning yanvaridan boshladi. Ushbu tizim o'z oldiga davlatlar tomonidan taqdim etilgan terrorizm, separatizm, ekstremizm haqidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish va bu boradagi hamkorlik bo'yicha o'z maslahatlarini beradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, dastavval Tuzilmaning shtab kvartirasi Bishkek shahrida joylashishi belgilangan bo'lib, keyinchalik Moskvadagi yig'ilishda uni Toshkentda joylashishi kelishib olindi.

ShHTning Aksilterror tuzilmasi 2006-yilning aprel oyida 15 ta terroristik tashkilotning va 400 ashaddiy terroristlarning ro'yxatini tuzib chiqdi. Xuddi shu majlisda Rossiya Federal Xavfsizlik Xizmati direktori o'rinbosari fikricha "oxirgi vaqtlarda "Hizb ut-tahrir" tashkilotiga kiruvchi 19 kishi O'zbekistonga, Qirg'iziston va Qozog'iston tomonlari esa Xitoyga 4 ta "Sharqiy Turkiston Ozodlik Tashkiloti" ning a'zolarini ekstraditsiya qilingan. Albatta qilingan ishlar, erishilgan muvafaqqiyta ko'lam juda keng va u ushbu kichik raqamlar bilan chegaralanmaydi.

Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi tashkil etilgan davrdan boshlab 2006-yilgacha olti mamlakat hududida 250dan ortiq uyushtirilishi mumkin bo'lgan teraklarning oldi olindi. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti ning a'zo davlatlari hududida uch yovuzlik bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning faoliyatini to'xtatish bo'yicha ishchi guruhi tashkil etildi. Bundan tashqari, ShHT ning so'nggi sammitlarida uchta muhim hujjat imzolandi. Bulardan bittasi ShHT a'zo davlatlarining 2007-2009-yillarda uch yovuzlikka qarshi kurashish dasturi imzolandi.

ShHT MATT ning sobiq ijroiya komitet direktori D.Jumanbekov ta'kidlaganidek, "MATT ShHT ning doimiy harakatdagi organi bo'lib va u a'zo davlatlarning birgalikdagi harakatlarini "uch yovuzlik" ka qarshi muvofiqlashtirish uchun tuzilgan". MATT doirasida huquqiy hamkorlik bazasini mustahkamlashda 2009-yil 16-iyunda Yekaterinburgdagi ShHT ning sammitida imzolangan ShHT ning terrorizmga qarshi Konvensiyasi muhim hisoblanadi.

Markaziy Osiyoda terrorizm xavfi saqlanib qolmoqda, lekin tan olish lozimki, MATT MDH kabi formal tashkilot bo'lib qolmadi, o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarmoqda. 2006-yil martida MATT o'zining birinchi qo'shma "Sharq antiterror-2006" mashg'ulotlarini O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston hududida o'tkazdi. Antiterroristik qo'shma mashg'ulotlar terroristik guruhlarni topish va ularni ta'sirini yo'qotish hamda davlat obyektlari va garovga ushlab turilganlarni xavfdan xoli etish borasida mashg'ulotlar o'tkazish demakdir.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, "MATT ning bugungi kundagi asosiy e'tibori xorijiy diplomatik vakolatxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan. MDH ning antiterroristik markazi, ODKB vakillari bilan doimiy ravishda ishchi uchrashuvlari o'tkazilib turiladi. BMT ning Markaziy Osiyodagi uyushgan jinoyatchilik va narkotik vakolatxonasi bilan "uch yovuzlik" tegishli masalalar yuzasidan fikrlar almashinilib hamkorlikning bu boradagi aniq yo'nalishlari belgilab olindi. BMT ning xavfsizlik kengashi bilan "Al-qoida" va "Tolibon" harakatiga qarshi sanksiyalar bo'yicha aloqa o'rnatilgan. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti a'zo davlatlari organlarining ikki va ko'p tomonlama ushbu boradagi harakatlarining faollashuvi ular ishining natijasini samarali qilishga yordam beradi. MATT ning sa'y harakatlari natijasida 100 dan ortiq terrorchilik jinoyatining oldi olinib shundan 50 tasi aholi ko'p bo'ladigan joyda o'tkazish rejalashtirilgan.

Qolgan ikki hujjat esa "Shanxay Hamkorlik Tashkiloti a'zo davlatlari o'rtasida terrorizm, separatizm, eksteremizmga aloqador shaxslarning ShHT a'zo davlatlari hududiga kirib kelish yo'llarini aniqlash va berkitish" va "Shanxay Hamkorlik Tashkiloti a'zo davlatlari o'rtasida qo'shma aksiterror tadbirlari o'tkazishni tartibga solish to'g'risida"gi kelishuvlardir.

Sovet ittifoqining parchalanib ketishi Markaziy Osiyo mintaqasida tezkor suratda yangi vaziyatni tug'ilishiga olib keldi. Mintaqa mamlakatlari umumiy xavflarga nisbatan birlashish va unga qarshi tashqi siyosat olib borishga qaror qildilar. Mintaqadagi integratsion loyihalar o'rtasida ShHT muhim o'rinni egallaydi. Dastlab ushbu tashkilotni tuzishda Xitoy, Rossiya va boshqa to'rt sobiq respublikalar o'rtasidagi chegara muammolari sabab bo'lgan. Ushbu masalalarni xal qilishdagi dastlabki hamkorlik, ShHTning tashkil etilishi asosiga aylandi deb aytish mumkin.

Shu bilan birga mintaqada uzoq yillar xukmronlik qilgan sobiq sovet ittifoqining parchalanishi va uning o'rnida yangi mustaqil davlatlarning shakllanishi, global va mintaqaviy tuzum bilan bog'liq barqarorlikka xavf tug'diruvchi omillarni keltirib chiqardi. Markaziy Osiyo hududida siyosiy vaziyat barqarorligiga putur yetkazishga harakat qiluvchi kuchlar faollashuvi ko'zga tashlana boshlandi. 1992 – yilda Afg'onistonda boshlangan fuqarolar urushi mintaqa barqarorligi uchun jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi xolat edi. Albatta mustaqillikni endigina qo'lga kiritgan davlatlar uchun muammolarni tinch yo'l bilan hal etish, faollashib qolgan tinchlikka tahdid qiluvchi kuchlarga barham berish, mintaqada joylashgan davlatlarning oldidagi birinchi galdagi dolzarb masalalaridan biriga aylanib qoldi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki oxirgi 30 yil ichida xalqaro jinoyatchilikning eng xavfli ko'rinishlaridan deya e'tirof etiyotgan: terrorizm, separatizm va ekstremizm, narkotrafik hamda uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, nafaqat mintaqa davlatlari uchun balki, dunyodagi gegemon davlatlar uchun ham eng dolzarb muammolardan biriga aylandi. U zamonaviy jamiyatning mavjudligiga, uning xavfsizligiga, hamda jamiyatdagi ijtimoiy - siyosiy munosabatlar va xalqaro munosabatlarga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligiga butun dunyo hamjamiyati guvoh bo'ldi.

Sovet Ittifoqi qulaganidan so'ng, Markaziy Osiyo davlatlari qisqa muddat ichida asosiy maqsad sifatida uzoq muddat hukmron bo'lgan utopik g'oyalarga barham berib, demokratik davlat barpo etish maqsadini qo'ydilar. Albatta har bir davlatning oldiga qo'ygan asosiy vazifalaridan biri, shubhasiz bu o'z hududi va fuqarolarining xavsizligini ta'minlashdir.

Afg'oniston bilan bir mintaqada joylashgan davlatlarning xavfsizlik masalasiga yanada jiddiyroq e'tibor berish tushunarli hol deyishim mumkin. Sovuq urush tugaganidan so'ng, dunyodagi tashkil topgan yangi tartib Sovet ittifoqi o'rnida vujudga kelgan yangi mustaqil davlatlar oldiga tinch qo'shnichilik, chegaralar xavfsizligi, jinoyatchilikka qarshi kurash kabi masalalarni qo'ydi. Bu masalalar yosh davlatlar uchun juda muhimligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Shu bilan birga yuqoridagi masalalarning ShHT a'zo davlatlari uchun qadri yanada yuqori bo'lib, buni hududdagi bu davlatlarning Afg'oniston bilan chegaradoshligi bilan izohlash mumkin. O'zbekistonning birinchi Prezidenti ShHTning Toshkentda bo'lib o'tgan a'zo davlatlar rahbarlari Kengashida aytib o'tganidek "o'ttiz yo'ldan beri urush davom etayotgan Afg'oniston muammosini yechmasdan turib, Markaziy Osiyo xavfsizligi haqida gapirib bo'lmaydi." [3].

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joziki, davlatchilik instituti paydo bo'lgan davrdan boshlab xavfsizlik masalalari har qanday davlatda ustuvor ahamiyat kasb etgan. Davlatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy barqarorligi birinchi navbatda uning xavfsizligi bilan chambarchas bog'liq. Zamonaviy dunyoda bitta mintaqadagi turli xil tabiiy yoki texnogen ofatlar, epidemiyalar, moliyaviy tangliklar, tashqi muhitning keng miqyosda ifloslantirilishi darhol boshqa mintaqalar xavfsizligiga ham tahdid soladi.

O'zbekiston bugungi kunda mintaqadagi muhim tashkilotlardan biri bo'lmish Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasida o'z xavfsizligini ta'minlashga keng e'tibor qaratgan va bu yo'lda faol harakat olib bormoqda. ShHT ham kollektiv xavfsizlikning bir ko'rinishi bo'lib, asosiy vazifalaridan biri bu mintaqada xavfsizlikni ta'minlashdan iborat deb aytishimiz mumkin. O'zbekistonni Tashkilot doirasidagi xavfsizlik masalalariga jiddiy yondashadiva xududdagi barqarorlikni ta'minlashga faqatgina Afg'on muammosiga yechimi orqaligina erishish mumkin. Ushbu fikrimni tasdig'i sifatida quyidagi raqamlarga murojaat qilsak.

Bugungi kunda Afg'onistondagi narkotik moddalarning ishlab chiqarishdagi asosiy xom - ashyo hisoblanmish ko'knori maydonlari 163 ming gani tashkil etadi. Bu butun dunyodagi ko'knori maydonlarining 70%i degani.[4] ekspertlar ma'lumotlariga qaraganda, taxminan yiliga Afg'on narkotik moddalarini aylanmasi 4 mlrd dollardan ortig'i Afg'onistonga qaytadi.[5] Ushbu narkotikka 15 mln inson bog'lanib qolgan bo'lib, u yiliga 100 mingga yaqin kishini hayotdan olib ketadi. Bundan tashqari, u VICH - infeksiyasi tarqalishiga ko'mak beradi, afg'on narkotiki terroristik va jinoyatchi guruhlarining asosiy moliyaviy manbai hisoblanadi. Birgina 2010 yilda Afg'onistonda yetishtiriladigan narkotikning taxminan 90 tonnasi Markaziy Osiyo orqali eksport qilingani.[6]

Bu yili AQSh va NATO a'zo mamlakatlarining Afg'onistonni tark etishi qarori ortidan mahalliy hokimiyatni qulashi va tezlikda tolibon harakatini hukumat tepasiga kelishi ohirgi yillarda nisbatan barqaror bo'lgan qo'shni davlat Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari uchun yangi jumboqqa aylandi [9-10]. Tolibon harakati o'zining asosiy hamkori sifatida Xitoy, Turkiya, Pokiston va Rossiyani ko'rishi[7]ni yashirmayotgani yana bir bor ShHTni Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligini ta'minlashda ahamiyatini oshiradi.

Fikrimcha 2012 yili Tashkilotga kuzatuvchi sifatida qabul qilingan Afg'oniston, yangi hukumat ya'ni Tolibonlar davrida ham tashkilotda ishtirok etilishi qo'llab quvvatlaydi. Shu o'rinda tashkilotga a'zo mamlakatlar Afg'onistonni tashkilotga to'la qonli a'zo sifatida qabul qilish tashabbusini tezlashtirishlari lozim. Chunki a'zo davlat hududida tashkil etiladigan Mintaqaviy Akslterror Tuzilmasi (PATC) orqali hamkorlik natijasida a'zo davlatlarga xavf soluvchi jinoiy va terroristik tuzilmalarga qarshi kurashda Afg'oniston hududida bevosita faoliyat muhim rol o'ynashi aniq. Tashkilot davlatlarini mushtarak maqsadi: Afg'onistonni jinoiy va terroristik guruhlariga makonga aylanishiga yo'l qo'ymaslik, umumiy muvofiqlashgan yondashuvni amalga oshirishini osonlashtiradi.

Albatta Afg'onistonni tashkilotga qabul qilish birinchi navbatda kuchli siosiy bosimlarga sabab bo'lishi aniq. Chunki bugungi kunda ko'plab dunyo mamlakatlari xali toliblar hukumatini tan olmadi. Lekin shu o'rinda Prezident Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 76 – sessiyasidagi nutqida aytib o'tganidek, Afg'onistonni yakalab, muammolar girdobiga tashab qo'yish yaxshi oqibatlarga olib kelmaydi.[8] Afg'onistonni xalqaro hamkorlikka undash bu orqali uni xalqaro hamhamiyat oldidagi majburiyatlarini bajarishini ta'minlashga erishish juda muhim vazifa sifatida

ko'rilishi lozim. Bugungi kunda xalqaro yakkalash va sanksiyalar siyosati ko'zlangan maqsadlarni bermayotganiga bir necha xolatlarda guvoh bo'lmoqdamiz. Xalqaro izolatsiya qilish ya'ni yakkalash Afg'oniston hukumatini boshqa yakkalangan yoki sanksiyalar joriy qilingan hukumatlar bilan hamkorligini oshirishiga hamda xalqaro hamjamiyatga nisbatan ishonchsizlikka olib keladi. Bundan tashqari xalqaro xavfsizlikni ta'minlash uchun o'ta muhim bo'lgan ma'lumotlarni ushbu davlat hududidan yig'ish va ularni almashish bo'yicha harakatlarni amalga oshirishni deyarli imkonsiz xolatga aylantirishi hech kimga sir emas.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Бобокулов И. И. “Международно-правовые аспекты региональной безопасности: вопросы теории и практики.” Т.:УМЕД.2010. – С. 9. (Bobokulov I. I. "International legal aspects of regional security: theory and practice." Т., UWED 2010 – p.9.)
2. Закон Республики Узбекистан «Об основных принципах внешнеполитической деятельности Республики Узбекистан». 26 декабря 1996 г. N 336-I. (Law of the Republic of Uzbekistan "On the basic principles of foreign policy of the Republic of Uzbekistan". December 26, 1996 N 336-I.)
3. Выступление Президента Республики Узбекистан И.А.Каримова на 10-м заседании Совета глав государств-членов ШОС в Ташкенте 11 июня 2010 г (Speech by the President of the Republic of Uzbekistan I.A. Karimov at the 10th meeting of the Council of Heads of State of the SCO Member States in Tashkent on June 11, 2010) . http://ru.china-embassy.org/rus/zgxw/t708497.htmrofla/http://www.sectsco.org/news_detail.asp?id=284&LanguageID=3.html
4. Ijtimoiy – iqtisodiy so'rov xabarnomasi: ko'knori yetishtirishning asoslari, sabablari va oqibatlari UNODC, Fevral 2021. (“Socio-economic survey report: Drivers, causes and consequences of opium poppy cultivation.” UNODC, February 2021) https://www.unodc.org/documents/crop-monitoring/Afghanistan/20210217_report_with_cover_for_web_small.pdf
5. Никос Пассас и др. авторы. «АФГАНСКИЙ НАРКОТРАФИК: Нелегальные финансовые потоки» East West Institute 2017 – с. 10. (Nikos Passas and gr. of authors "AFGHAN DRUG TRAFFIC: Illegal financial flows" ESat West Institute 2017 – p. 10.)
6. Хакан Демирбукен и др. «ПОТОКИ ОПИАТОВ ЧЕРЕЗ СЕВЕРНЫЙ АФГАНИСТАН И ЦЕНТРАЛЬНУЮ АЗИЮ - Оценка угрозы» UNODC, Май 2012. С -54 (Hakan Demirbükен and gr. of researchers. “OPIATE FLOWS THROUGH NORTHERN AFGHANISTAN AND CENTRAL ASIA A Threat Assessment” UNODC, May 2012. P -54)
7. <https://www.aa.com.tr/en/asia-pacific/china-will-be-our-main-partner-say-taliban/2353877>
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 76-сессиясидаги нутқи. (Speech by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the 76th Session of the General Assembly of the United Nations). <https://president.uz/uz/lists/view/4632>
9. Ibratova F., Egamberdiev D. PURPOSE AND SIGNIFICANCE OF OBSERVATION-BANKRUPTCY PROCEDURES APPLICABLE BY THE ECONOMIC COURT FOR LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //Polish Journal of Science. – 2019. – №. 20-2. – С. 37-42.
10. Egamberdiev D. Formation Of Joint Investigation Teams Between States, And Their International And National Legal Basis //Elementary Education Online. – 2021. – Т. 20. – №. 3. – С. 1480-1486.

**ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ЖУРНАЛИ
6 ЖИЛД, 9 СОН**

**ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ
ИССЛЕДОВАНИЙ
ТОМ 6, НОМЕР 9**

**JOURNAL OF LAW
RESEARCH
VOLUME 6, ISSUE 9**

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000